

## QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MOLIVAVIY NATIJALARI JORIY XOLATINI BOXOLASH VA TAXLIL QILISH

Mirzayev Umidjon Mirzaxmedovich

**“Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi”ning Farg‘ona viloyati bo‘yicha  
xududiy vakili, mustakil tadqiqotchi (PhD)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19851606>

**Annotatsiya:** Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy natijalari, ularni baholash mezonlari hamda tahlil qilish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar va mavjud muammolar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy natija, rentabellik, daromad, xarajat, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, tahlil.

Milliy iqtisodiyotning bozor sharoitida barqaror rivojlanishi va moliyaviy jihatdan mustaxkam bo‘lishi mamlakat iqtisodiy tizimining eng muhim tarkibiy elementlari hisoblanadigan tijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liq. Iqtisodiy ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning qiziqishi oshib bormoqda va xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning moliyaviy holati barqarorligi haqida ishonchli ma‘lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash sifatini oshirish uning axborot va uslubiy ta‘minoti darajasiga bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalo, ularning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq. Bugungi bozor munosabatlarida har bir xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt uchun moliyaviy barqarorlikni o‘z vaqtida baholash, unda kuzatilayotgan xavf va muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi moliyaviy tahlil uslublari ko‘pincha umumiy xarakterga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligining tarmoq xususiyatlarini yetarlicha hisobga olinmagan. Shu boisdan moliyaviy barqarorlikni aniqlashda zamonaviy, to‘g‘ri tizimlashtirilgan, tezkor ma‘lumot bera oladigan analitik-tahliliy ta‘minot asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolaning maqsadi - qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy natijalari, ularni baholash mezonlari hamda tahlil qilish usullari ko‘rib chiqish, shuningdek ular asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalarning moliyaviy natijalarini baholash ularning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning daromadliligi, xarajatlar darajasi va rentabellik ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarur.

Moliyaviy natijalar – bu korxona faoliyati natijasida olingan foyda yoki zarar ko‘rsatkichidir. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- ✓ yalpi daromad;
- ✓ sof foyda;
- ✓ ishlab chiqarish tannarxi;
- ✓ rentabellik darajasi.

Mazkur ko'rsatkichlar korxonaning iqtisodiy holatini aniqlash va uning rivojlanish istiqbollari belgilash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy holatini baholashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

a) Gorizontal tahlil. Moliyaviy ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarishini aniqlash imkonini beradi.

b) Vertikal tahlil. Moliyaviy hisobot tuzilmasini o'rganish orqali asosiy ulushlarni aniqlaydi.

c) Rentabellik tahlili. Korxona daromadlilikini baholash uchun ishlatiladi. Masalan:

- ✓ aktivlar rentabelligi;
- ✓ mahsulot rentabelligi;
- ✓ sotuvlar rentabelligi.

d) Ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash. Likvidlik, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari orqali kompleks baho beriladi.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalarining joriy moliyaviy holati tahlili

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda: iqlim sharoitlari va tabiiy resurslar; ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi; bozor narxlarining o'zgaruvchanligi; davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalar va imtiyozlar.

Ko'plab korxonalarda daromad oshayotgan bo'lsa-da, xarajatlarning yuqoriligi sababli sof foyda darajasi past bo'lib qolmoqda. Bu esa rentabellik ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda.

**Jadval -1. Muammolar va ularni hal etish yo'llari**

Asosiy muammolar:	Takliflar:
moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi;	innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
zamonaviy texnologiyalarning kam qo'llanilishi;	kredit va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish;
moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi;	xarajatlarni optimallashtirish;
marketing tizimining rivojlanmaganligi.	mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va eksportni rivojlantirish.

**Xulosa.** Qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalarini baholash va tahlil qilish ularning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tahlil natijalari asosida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam ravishda tahlil qilish va takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati: oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ T. Quدراتov, N. Fayziyeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Voris-nashriyot,

2012. - 256 b.

2. Mirzayev U. M. (2025). Qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini diagnostika qilishda analitik-tahlil ta'minotini rivojlantirish yo'llari. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (13.I), 2342-2349.
3. Yaxyoyov T., & Eshtemirov J. B. (2025). Moliyaviy barqarorlik tahlili va uning o'ziga xos jihatlari. Journal of marketing, business and management, 3 (9), 163-166.